



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 15-iyul, № 143 (9314)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



TOSKANA VILOYATI BILAN HAMKORLIK ULKAN SALOHİYATGA EGA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-iyul kuni mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Italiyaning Toskana viloyati gubernatori Eujenio Jani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston — Italiya strategik sherikligini, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar sohalarida

yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Hududlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Barcha darajalarda ikki

tomonlarni muloqotlar faollashgani va hamkorlikning asosiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil

boshidan buyon o'zaro savdo hajmi 25 foizga oshdi. O'zbekistonda metallurgiya, energetika, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati hamda

iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida Italiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va Toskanani ko'p asrlik tarixiy hamda madaniy aloqalar bog'lab turishi ta'kidlandi. Buyuk lpak yo'li davrida Florensiya bilan O'zbekistonning qadimiy shaharlari o'rtasida faol savdo-sotiq amalga oshirilgan, florensiyalik savdogar va diplomatlar esa Amir Temur saroyida qabul qilingan.

Bugungi kunda Toshkent shahrida Piza universitetining filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda mazkur filial mehnat bozoriga ilk bitiruvchilarni chiqaradi. Prato shahrida mamlakatimizning to'qimachilik mahsulotlari "Savdo uyi" ishlamoqda. 2024-yilda Florensiyadagi Uffitsi galereyasida yurtimizning avangard san'ati asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Toskana viloyati bilan to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat va zargarlik sanoati, qurilish hamda ta'lim, madaniyat va turizm sohalarida hamkorlikni

rivojlantirish katta salohiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Toskana va Buxoro viloyati o'rtasida sheriklik aloqalarining rivojlanayotgani hamda hamkorlik to'g'risida bitim imzolangani yuksak baholandi.

Uchrashuv yakunida Toskana bilan mamlakatimiz hududlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan yangi loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi qo'shma "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash va qabul qilish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Toskana Italiyaning eng iqtisodiy rivojlangan hududlari qatoriga kiradi va kuchli sanoat salohiyati, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, zamonaviy qishloq xo'jaligi, jahonga mashhur vinochilik hamda turizm tarmog'iga ega.

Viloyatning ma'muriy markazi — Florensiya esa jahon madaniyati, ilm-fani va san'ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Uyg'onish davrining umumiy t'irof etilgan "beshigi" hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Prezident Ilhom ALIYEV:

QORABOG'NI TIKLASHDA BIRINCHI YORDAM O'ZBEKISTONDAN KELDI

13-iyul kuni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev IV Shusha Global media forumining ochilish marosimida so'zlagan nutqida O'zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish Ozarbayjon uchun ustuvor yo'nalishlardan biri ekanini ta'kidladi.

E'tirof

"Muhtaram Prezident Shavkat Miromonovich bilan shaxsiy do'stligimiz bu munosabatlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Qorabog'ni tiklashda bizga birinchi bo'lib O'zbekiston Prezidenti yordam berganini alohida ta'kidlayman. Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi ko'rkam va katta maktab qurildi hamda biz Shavkat Miromonovich bilan birgalikda ushbu maktabni ochdik. Shundan so'ng bizga boshqa qardosh davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston ham sovg'alar taqdim etdi. Lekin birinchi yordam aynan O'zbekistondan keldi", dedi Ozarbayjon yetakchisi.

Prezident Ilhom Aliyev ikki mamlakatni juda chuqur tarixiy rishtalar bog'lab turishi hamda O'zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanini qayd etdi. Ozarbayjon rahbari O'zbekistonning birodarlik missiyasi faqat maktab bilan cheklanib qolmaganiga e'tibor qaratdi. Xonkendi shahridagi birinchi yirik sanoat korxonasi — tikuvchilik fabrikasi ham aynan o'zbek sarmoyasi hisobidan ochildi.

"Ko'plab iqtisodiy va sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda. Ularga ham Ozarbayjon, ham O'zbekiston sarmoyalari kiritilmoqda. Biz ustav kapitali 500 million dollar bo'lgan qo'shma investitsiya fondini tuzdik. Mazkur investitsiya fondi O'zbekiston va Ozarbayjonda turli loyihalarni amalga oshirish bilan shug'ullanmoqda. Bugun Ozarbayjonning "SOCAR" neft kompaniyasi O'zbekistondagi muhim konni qidirishga sarmoya kiritmoqda va yaqin kelajakda yaxshi xabarlar eshitishga ishonamiz. Chunki bugungi kunda energetika xavfsizligi, ayniqsa, gaz ta'minoti masalalari ko'plab

mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega va "Ustyurt" konidagi qidiruv ishlari yaxshi natijalar berishiga ishonaman", dedi Ozarbayjon Prezidenti.

Ilhom Aliyev "Ozarbayjon — Markaziy Osiyo" formati tashkil etilganiga alohida to'xtalib, bunda ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning yuksak xizmatlari va o'ziga xos o'rnini borligini ta'kidladi. "Ozarbayjon allaqachon ushbu Maslahat kengashiga to'laqonli a'zo sifatida qo'shildi. Meni ikki marta sammitlarga faxriy mehmon sifatida taklif qilishdi. Oxirgi marta tashkil etilgan uchrashuvda yagona "Ozarbayjon — Markaziy Osiyo" Maslahat kengashi tuzildi. Bu bizda katta g'urur va quvonch uyg'otadi. Aytishim mumkinki, bu noyob hodisa, chunki geografik jihatdan biz Janubiy Kavkazda joylashganmiz. Biroq madaniy, tarixiy va etnik aloqalar shunchalik mustahkam, siyosiy munosabatlar esa shu qadar ko'p qirralik, Markaziy Osiyodagi do'st mamlakatlar bizni qabul qilish haqidagi qarorni qo'llab-quvvatladi", dedi u.

Ozarbayjon davlat rahbarining fikricha, bunday munosabatlar bugungi kunda geosiyosiy va geoiqtisodiy munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki shu tariqa Markaziy Osiyo Ozarbayjon bilan yagona iqtisodiy va siyosiy makonda birlashadi.

Ta'kidlanganidek, "Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'ra bilishi va strategik qarashlari bu borada juda muhim ahamiyat kasb etdi".

"Qardosh o'zbek xalqi va davlati Prezident Shavkat Mirziyoyev yetakchiligidagi muvaffaqiyatli tarzda va ishonch bilan olg'a borayotgani e'tirofqa loyiq", deya so'zini yakunladi Ozarbayjon Prezidenti.

"Dunyo" AA.
Boku

PENSIYA TIZIMI ILG'OR XORIJIIY TAJRIBA ASOSIDA ISLOH QILINADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

O'n yilda mamlakatimizda pensiya miqdori 3,3 barobar oshirildi, uning eng kam miqdori minimal iste'mol xarajatlari darajasidan yuqori belgilandi. 2021-yilgacha 1,1 million nafar fuqaroning pensiyasi 400 ming so'mdan kam bo'lgan. Bugungi kunda eng kam pensiya miqdori 878 ming so'mni, minimal iste'mol xarajatlari esa 715 ming so'mni tashkil etmoqda.

Taqdimotda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi rivojlangan mamlakatlarda pensiya mablag'lari iqtisodiyot uchun uzoq muddatli resurs vazifasini o'tayotgani qayd etildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatimizda pensiya tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, iqtisodiyotga uzoq muddatli mablag'larni jalb qilish mumkin. Buni Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari ham tasdiqlamoqda.

Shu bois pensiya tizimini ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish, jamg'arib boriladigan, xususiy va korporativ pensiya tizimlarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Hozirda fuqarolar ish haqining 0,1 foizi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ushbu mablag'larga hisoblanadigan yillik 10 foizlik daromad bank omonatlaridan qariyb ikki barobar kam.

Shu munosabat bilan mazkur tizimning jozibadorligini oshirish va aholini unda faol ishtirok etishga rag'batlantirish bo'yicha yangi mexanizmlar taklif qilindi.

Xususan, oylik ish haqi 7,6 million so'mgacha (pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 15 baravari) bo'lgan fuqaro jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ish haqining 5 foizini o'tkazsa, davlat tomonidan qo'shimcha yana 2,5 foiz miqdorida mablag' ajratish ko'zda tutilmoqda.

Oylik ish haqi 7,6 million so'mdan yuqori bo'lgan fuqarolar uchun esa

to'langan ijtimoiy soliqning shu miqdordan oshgan qismining 1 foizini ularning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazish taklif etildi.

Pensiya miqdorini hisoblash tartibini takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Amalda pensiya oxirgi o'n yillik mehnat faoliyatidagi besh yillik ish haqidin hisoblanadi. Shuningdek, ish haqining 6 million so'mdan yuqori qismi hisobga olinmaydi. Bu ayrim hollarda fuqarolar pensiyasining o'tacha miqdori pasayishiga olib kelmoqda.

Shu bois pensiya hisoblanadigan ish haqi davrini 5 yildan 20 yilgacha uzaytirish hamda past daromad olingan ayrim davrlarni hisobdan chiqarish taklif qilindi.

Shuningdek, 2027-yildan boshlab pensiya hisoblashda inobatga olinadigan ish haqining yuqori chegarasini hozirgi 6 million so'mdan 6,6 million so'mga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yangi tartib asosida pensiyaga chiqadigan fuqarolarning pensiya miqdori hozirgiga nisbatan 8 foizga oshishi mumkin.

Davlatimiz rahbari pensiya tizimidagi o'zgarishlar millionlab fuqarolarning hayoti va kelajagiga daxldor ekanini ta'kidlab, har bir taklifning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini puxta hisob-kitob qilish zarurligini ko'rsatib o'tdi.

Bunday masalalarni aholi, keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va blogerlarni jalb qilgan holda ochiq muhokama qilish, islohotlarning maqsadi va kutilayotgan natijalarini fuqarolarga aniq tushuntirish vazifasi qo'yildi.

Mutasaddilarga xorijiy tajribani har tomonlama puxta o'rganib, xususiy va korporativ pensiya tizimlarini yaratish bo'yicha qonun loyihasini kiritish vazifasi qo'yildi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI QATAR AMIRI VA XALQIGA HAMDARDLIK BILDIRD

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati sobiq Amiri Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish uchun 14-iyul kuni Doha shahrida bo'ldi.

Hamad xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qatar Bosh vaziri o'rinbosari, mudofaa vaziri Shayx Saud bin Abdulrahmon Ol Soniy va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni Lusail saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida davlatimiz rahbari Qatar Amiriga otasi — sobiq Amir Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniyning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi.

Shayx Hamad Ol Soniy Hazratlari Qatar Davlati erishgan ko'plab tarixiy yutuqlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-

iqtisodiy hayotdagi jadal islohotlar, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ortishiga ulkan hissa qo'shgan siyosat arbobi bo'lgani ta'kidlandi.

Shu bilan birga, ul zotning mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqin do'stlik va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlashdagi samarali mehnatlari alohida qayd etildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Qatar bugungi kunda mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallayotgani, xalqaro maydonda katta ta'sirga ega "Doha ovozi" paydo bo'lganini e'tirof etdi.

Ikki davlat yetakchilari O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, ko'p qirrali

aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarni muhokama qildilar.

O'z navbatida, Qatar Amiri O'zbekiston Prezidentiga ushbu sinovli damlarda shaxsan tashrif buyurib, bildirgan samimiy hamdardligi hamda do'stona qo'llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik izhor etdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston rahbari Qatar Amirini o'ziga qulay bo'lgan fursatlarda mamlakatimizga tashrif buyurishga taklif etdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlatiga tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

PARLAMENT SOHASIDAGI SALMOQLI YUTUQLAR

2025-yilning 5 – 9-aprel kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun tarixiy voqea bo'ldi. Mintaqada ilk bor tashkil etilgan ushbu nufuzli forum parlament diplomatiyasida yangi bosqichni boshlab berdi hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini yanada mustahkamladi. Bu yutuq Parlamentlararo Ittifoqning Jenevada e'lon qilingan 2025-yil yakunlari bo'yicha rasmiy yillik hujjatida ham alohida qayd etildi.

Hisobot

Parlamentlararo Ittifoqning 2025-yildagi faoliyat natijalari to'g'risidagi yillik hisobotda tashkilotning o'tgan yil davomida parlamentlar hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari hamda a'zo davlatlar bilan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan. Bunda O'zbekistonning parlament sohasidagi qator tashabbuslari va tajribasi ilg'or namuna sifatida keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil davomida Parlamentlararo Ittifoq tomonidan 80 ta xalqaro tadbir, jumladan, 2 ta assambleya hamda parlamentlar salohiyatini oshirishga qaratilgan 40 ta milliy tadbir tashkil etilgan. Shuningdek, parlament a'zolarining huquqlari buzilishi bilan bog'liq 1 027 ta murojaat ko'rib chiqilgan, tashkilot faoliyati ommaviy axborot vositalarida qariyb 30 ming marta yoritilgan.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MASALALARNING HAYOTIY YECHIMLARI VA MILLIY MANFAATLAR ASOSI



batafsil javoblar olingani urg'ulandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza, shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Munozaralar davomida deputatlar tomonidan dolzarb taklif va amaliy tavsiyalar bildirilgani, xalq vakillari ko'targan masalalar bo'yicha mutasaddilardan

Milliy ma'ruza ko'rib chiqildi

Kun tartibidagi masala yuzasidan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A. Burhonov axborot berdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida korruptsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlar tizimli amalga oshirilmoqda. Korruptsiyaga qarshi

kurashish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Hukumat faoliyatining ochiq va ochkorligini ta'minlash va mas'uliyatini kuchaytirish, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.



Senat qoʻmitasida

KORRUPSIYAGA
MUROSA YOʻQ



Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi majlisida Oʻzbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida milliy maʼruza koʻrib chiqildi.

Muhokama jarayonida korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi, davlat organlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish, qonunlar ijrosini taʼminlash hamda parlament nazorati natijalari asosiy eʼtibor markazida boʻldi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda unga qarshi kurashishning huquqiy hamda institutsional asoslari sezilarli darajada takomillashtirildi. Oʻzbekiston

qoʻshimcha choralar zarurligini koʻrsatmoqda.

Muhokama davomida ayrim davlat organlarida ichki nazorat tizimi yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmagani, nazorat boʻlinmalari xodimlariga oʻz vazifalaridan tashqari qoʻshimcha ishlar yuklatilayotgani ham tanqid qilindi.

Qoʻmita korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish maqsadida qator muhim vazifalarni



– 2030ʻ strategiyasida ham korruptsiyaviy xavflarni kamaytirish, davlat boshqaruvida ochiqlikni kuchaytirish va jamiyatda mazkur illatga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bu yoʻnalishdagi islohotlar xalqaro reytinglarda ham oʻz aksini topmoqda. Jumladan, “Transparency International” tashkiloti eʼlon qilgan 2025-yil yakunlari boʻyicha Korruptsiyani qabul qilish indeksida Oʻzbekiston 182 davlat orasida 31 ball bilan 124-oʻrinni egalladi.

Yigʻilishda bu yoʻnalishda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjudligiga eʼtibor qaratildi. Xususan, 2025-yilda korruptsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga eng katta zarar Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida keltirilgan. Bundan tashqari, korruptsiya bilan bogʻliq jinoyatlarda ayblanib sudlanganlarning asosiy qismini maktabgacha va maktab taʼlimi tizimi, sogʻliqni saqlash muassasalari, mahalliy hokimliklar hamda tijorat banklari xodimlari tashkil etmoqda. Bu esa aynan fuqarolar eng koʻp murojaat qiladigan sohalarda korruptsiya xavfini kamaytirish boʻyicha

belgiladi. Xususan, korruptsiya koʻrsatkichlari oshgan davlat organlari faoliyatini chuqur tahlil qilish va tezkor choralar koʻrish, ushbu jinoyat haqida xabar bergan fuqarolarni ragʻbatlantirish tizimini keng targʻib etish, bu boradagi tartibni aholiga sodda hamda tushunarli shaklda yetkazish uchun maxsus videoroliklar tayyorlash, davlat organlaridagi ichki nazorat tizimlari faoliyatini kuchaytirish va ochiqlik toʻgʻrisidagi qonunchilik talablarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qatʼiy choralar koʻrish shular jumlasidan.

Majlisda parlament nazorati doirasida yana qator muhim qonunlarning amaliy ijrosi ham tahlil qilindi. Xususan, “Geografik koʻrsatkichlar toʻgʻrisida”, “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”, “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi toʻgʻrisida” hamda “Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida”gi qonunlarning ijrosi, huquqni qoʻllash amaliyoti va ularga oid qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoring natijalari muhokamadan oʻtkazildi.

Koʻrib chiqilgan masalalar boʻyicha qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

PARLAMENT SOHASIDAGI
SALMOQLI YUTUQLAR

Yillik tahlilda parlamentlar samaradorligini oshirish, xotin-qizlar va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, sunʼiy intellektni huquqiy tartibga solish, dezinformatsiyaga qarshi kurashish, iqlim oʻzgarishiga qarshi parlament nazorati va diplomatiyasini rivojlantirish, shuningdek, tashkilot faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini taʼminlash 2025-yilning ustuvor yoʻnalishlari sifatida belgilangan edi.

Hisobotning alohida qismi Toshkentda boʻlib oʻtgan 150-yubiley assambleyaga bagʻishlangan. Unda mazkur forum Oʻzbekiston parlamenti tomonidan yuksak tashkiliy darajada oʻtkazilgani, mamlakat Markaziy Osiyo tarixida ilk bor Parlamentlararo Ittifoq assambleyasiga mezbonlik qilgani alohida taʼkidlangan.

Shuningdek, assambleya ishtirokchilari tarkibi ham yuqori baholangan. Xususan, unda parlament ayol aʼzolari ulushi 37 foizdan oshgani va bu 2022-yildan buyon qayd qilingan eng yuqori koʻrsatkich ekanini eʼtirof etilgan.

Yakuniy hujjatda assambleyaning asosiy natijasi boʻlgan Toshkent deklaratsiyasiga ham keng oʻrin ajratilgan. Deklaratsiya parlamentlar kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan yangi siyosat ishlab chiqish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari manfaatlariga javob beradigan demokratik iqtisodiyotni rivojlantirish hamda sunʼiy intellekt kabi yangi texnologiyalarni samarali tartibga soluvchi institutlarni mustahkamlashga chaqirishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, assambleya doirasida Parlamentlararo

Ittifoqning “Parlamentlarda gender tengligiga erishish yoʻlidagi 10 ta amaliy harakat” nomli yangi xalqaro tashabbus taqdim etilgani ham muhim voqea sifatida yuqori baholangan.

Hisobotda taʼkidlanganidek, Oʻzbekistonda inson huquqlariga bagʻishlangan seminarlar tashkil etilgani ham ilgʻor tajribalardan biri hisoblanadi. Oliy Majlis Senati Parlamentlararo Ittifoq qarorlarini mamlakat milliy rivojlanish kun tartibi bilan uygʻunlashtirishga qaratilgan “Yoʻl xaritasi”ni qabul qilgani alohida qayd etilgan.

Parlamentlararo Ittifoq ekspertlari tomonidan Oliy Majlis Senatining assambleya tashabbus va qarorlarini milliy darajada amalga oshirish boʻyicha tizimli va izchil yondashuvi barcha parlamentlar uchun namuna sifatida baholangan.

“Xalq soʻzi”.

Senator va hayot

TASHABBUS NATIJASIDAN
EL MAMNUN

Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi Boyjigit va Maʼrifat mahallalarida davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti mavjud emasligi sababli hudud aholisi farzandlarini Toshkent shahridagi bogʻchalarga olib borishga majbur boʻlayotganliklari haqida murojaatlar kelib tushgan edi.

Mazkur murojaatlar yuzasidan Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi Malika Qodirxonova tomonidan oʻrganish ishlari olib borildi hamda masala Senat yalpi majlisida koʻtarildi.

Senator tashabbusi natijasida Qibray tumanining Boyjigit mahallasi hududida joylashgan “Mejrjon” nomi 34-koʻp tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotining boʻsh turgan 30 sotix yer maydonida 120 oʻrinli yangi davlat maktabgacha taʼlim tashkilotini barpo etish loyihasi 2025-yilgi davlat investitsiya dasturiga kiritilgan edi. Loyihani amalga oshirish uchun Davlat byudjeti hisobidan 3,6 mlrd. soʻm ajratildi.

Qurilish va taʼmirlash ishlari yakunlanib, barcha zamonaviy talabarga javob beradigan, bolalarning sifatli taʼlim-tarbiya olishi, intellektual va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarga ega yangi davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti foydalanishga topshirildi.

Kuni kecha boʻlib oʻtgan va mahalla faollari, jamoatchilik vakillari



hamda ota-onalar ishtirok etgan ochilish marosimida soʻzga chiqqanlar mazkur taʼlim muassasasi aholi, ayniqsa, yosh oilalarning koʻp yillik ehtiyojini qondirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Tadbir ishtirokchilari muassasada bolalar uchun yaratilgan zamonaviy oʻquv xonalari, oʻyin maydonchalari, oshxona, tibbiyot xonasi, shuningdek, boshqa infratuzilma obyektlari bilan tanishib, yaratilgan shart-sharoitlarga yuqori baho berdi.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi aholi murojaatlarini oʻz vaqtida oʻrganish va ularning ijobiy yechimini taʼminlashda parlament nazorati hamda senatorlar tashabbuslarining amaliy samarasini yana bir bor namoyon etdi.

“Xalq soʻzi”.

Sammit

YOSH
EKOLOGLAR
ANJUMANI

Toshkent shahrida xalqaro yosh ekologlar sammiti oʻtkazildi. Unda mamlakatimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan yuzdan ziyod yigit-qizlar, davlat organlari, taʼlim muassasalari va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbir doirasida ekologik siyosatning ustuvor yoʻnalishlari, iqlim oʻzgarishi sharoitidagi dolzarb vazifalar va yoshlarning mazkur jarayondagi oʻrni yuzasidan fikr almashildi.

Tadbirda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orzigul Qozixonova ham qatnashdi. Senator oʻz soʻzida bugungi kunda ekologik muammolarni hal qilishda yoshlarning faolligi tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini taʼkidladi. Bugungi yosh ekolog nafaqat tabiatni asrash tarafdori, balki innovation gʻoyalari muallifi, ilm-fan targʻibotchisi va barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etuvchi faol yurtdoshimizdir.

Sammit davomida ekologik taʼlim sifatini oshirish, yoshlarning “yashil” tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish hamda har bir fuqaroning masʼuliyatini kuchaytirishga doir takliflar bildirildi.

“Xalq soʻzi”.

MEHNATDAN
QADR TOPDIM

Insonni mehnat ulugʻlaydi. Agar kishi ishini halol bajarsa, umrbod kasbiga sodiq qolsa, hayotning mashaqqatlari va sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻtsa, albatta, umridan baraka, kasbidan kamol topadi.

Aks sado

Shu kunlarda tabarruk toʻqson besh yoshni kutib oldim. Harbiy xizmatdan qaytgach, koʻplab tengqurlar qatori Bekobodimizdagi metallurgiya kombinatida ishlash istagida xodimlar boʻlimi mudiriga uchrashganim xuddi kechagidek yodimd. Shu tariqa taqdirim kombinat bilan bogʻlandi va bundan mingdan-ming roziman.

Xullas, 1955-yil 15-mart kuni menga mehnat daftarchasi ochilib, mazkur kombinatda oddiy ishchi vazifasida faoliyatim boshlandi. Oʻtgan vaqt mobaynida kasbimni ulugʻlashga harakat qildim. Taqvim sahifalari 2003-yilning 10-avgustiga kelganida, oltinchi muchal yoshimga peshvoz chiqqan chogʻim oʻz xohishimga koʻra, faoliyatimni yakunladim. Ammo mehnat faoliyatim faqatgina rasman nihoyasiga yetdi. Endilikda koʻp yillik tajribamni oʻzimda asrashim insodan emasligini ichimdan his qilardim. Axir, Alisher Navoiy hazratlari “Hunarni asrabon netgumdir oxir...” deya bejiz yozmagan-ku. Hayotiy koʻnikmalarim orqali yangi avlod metallurglarining kamol topishi uchun jamoatchilik asosida imkon qadar harakat qilib kelmogʻdam.

Kuni kecha milliy metallurgiyamiz hayotida tarixiy voqea sodir boʻldi. Bir necha oʻn yillik mehnat faoliyatim davomida bu koʻlamdagi oʻzgarishlarga guvoh boʻlmagan edim. Milliy metallurgiyamizdagi islohot va yangilanishlar mazkur sohada yashirin yotgan yangi imkoniyatlarimizni kashf etdi. Qani endi, taqdir moʻjizasi roʻy bersayu jilla qursa, ellik yoshga yosharib, Yangi Oʻzbekistonning yangilanayotgan metallurgiya kombinatida ter toʻkib, bu tarixiy



jarayonlarga oʻz hissamini qoʻshsam, deya orzu qilaman.

Oʻtgan kuni davlatimiz rahbari Bekobodga tashrif

buyurib, yangi majmuani ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Darhaqiqat, Oʻzbekiston metallurgiya kombinatida Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi keyingi yillarda mamlakatimizda kon-metallurgiya sohasini yangi texnologik bosqichga olib chiqish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar samarasini namoyon etdi. Oxirgi oʻn yilda sohaga jalb qilingan 2 milliard AQSH dollari miqdoridagi xorijiy sarmoya bugungi kunda 31 ta yirik ishlab chiqarish quvvatida oʻz hisilasini koʻrsatmoqda.

Yangi Oʻzbekistonning zamonaviy qiyofasini yaratish va yirik bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda muhim oʻrin tutgan metallurglar mehnati hamisha yuksak qadrlab kelinmoqda. Birgina oʻzimdagi qiyos: kuni kecha Prezidentimiz mehnatimizni juda yuksak qadrlab, zamonaviy avtomobil kalitini qoʻlimga topshirdi. Unga yangi mashinada borsam, qoʻni-qoʻshnilar aytayptiki, odam bir umr halol va pok ishlasa, albatta, qadr topib, kasbining ragʻbatini koʻrar ekan. Bir nuroniy uchun bundan ortiq baxt bormi?!

Metallurglarning poʻlatda toblangan matonati munosib eʼtirof etilayotgani uchun Prezidentimizdan behad minnatdormiz.

Hamid ANDAYEV,
mehnat faxriysi.
Bekobod shahri

OBOD MAMLAKATNING
BAXTIYOR
FARZANDIMAN!

Jonajon Oʻzbekistonimiz aholisining yarmidan ziyod qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar mamlakatidagi 1 145 nafar yigit-qiz Oʻzbekiston metallurgiya kombinatida mehnat qilib keladi. Ogʻir sanoat korxonasida ishlayotgan yuzdan ziyod dugonalarim zamonaviy texnologiyalarning yangi avlodidan foydalangan holda, milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishga hissa qoʻshmoqda. Ayniqsa, yetmish bir nafar tengdoshimning Germaniyaga malaka oshirish uchun yuborilgani va olmon yurtida oʻzlashtirgan koʻnikmalari asosida kombinatimizning Quyuv-prokatlash majmuasida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana boshlagani yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Dil soʻzi

Bekobod shahriga tashrifi doirasida Prezidentimiz metallurgiya ogʻir, ammo sharafi soha ekanini taʼkidlab, kombinatimiz ishchilari xodimlarining mashaqqatli va fidoyi mehnati yuksak hurmat hamda tahsinga sazovorligini aytdi. Soha faxriylari, hamkasblarim hamda xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilib, yangi majmua faoliyatiga ham start berildi.

Bu korxonaning ish boshlaganidan barcha qatori biz, bekobodlik xotin-qizlar juda quvondik. Zotan, Toʻmaris, Bibixonim, Nodira, Uvaysiy kabi momalarim oʻzlarining poʻlatdek matonati bilan shonli tariximizda butun bir davrni tashkil etgan. Bir qoʻli bilan beshikni, bir qoʻli bilan dunyoni tebratgan moʻtabar va munis onalarimizga munosib izdosh oʻlaroq Yangi Oʻzbekistonimizda uchinchi Uygʻonishning mustahkam poydevorini hozirlashga hissa qoʻshish baxtiga muyassar boʻlayotganimizni taqdirning bigʻza tufta etgan mukofoti, deb bilaman.

Garchi, ogʻir sanoat korxonasida ishlasam-da, bolalikdan sheʼriyat havasi bilan sheʼrlar mashq qilib kelaman. Keyingi yillarda, ayniqsa, yurtimiz qizlarga qaratilayotgan eʼtibor, davlatimiz rahbarining otalarcha gʻamxoʻrligi bizga qanot va ilhom bagʻishlamogʻda.



Prezidentimizga cheksiz eʼtibor va yuksak eʼtirof uchun minnatdorlik izhor qilib, ushbu sheʼrimda yozganimdek, shu aziz Vatanimning mustahkam poydevori uchun hissa qoʻshishda davom etaman:
*Olov bilan tillashar qoʻlim,
Temirga jon beramiz har kun.
Xizmatdamin qad rostlayotgan
Har bir bino, inshoot uchun.*

*Yangilanib borar shaharlar,
Yangilanib borar boʻstonim.
Poʻlatdayin mustahkam, magʻrur
Gullayversin Oʻzbekistonim.*

*Metallurglar – olov farzandi,
Matonati – kuchi, orida.
Mening ham oʻz hissam bor bugun
Shu Vatanning poydevorida.*

Dilnoza PRIMQULOVA,
“Oʻzmetkombinat”
aksiyadordlik jamiyati
Quyuv-prokatlash majmuasi
mutaxassisi,
Zulfiya nomidagi Davlat
mukofoti sovrindori.

2030-yilga qadar mamlakatimizda kamida 5 ta oliygohni umumiy reyting boʻyicha, yana 10 tasini fan yoʻnalishlari kesimida dunyoning eng yaxshi 500 ta oliy oʻquv yurti qatoriga kiritish maqsad qilingan.



MASALALARNING HAYOTIY YECHIMLARI VA MILLIY MANFAATLAR ASOSI



Sohada qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengashining 2025-yil 5-mart kuni boʻlib oʻtgan yigʻilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini taʼminlash yuzasidan koʻrilgan choralar natijasida parlament va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi ishtiroki yangi bosqichga koʻtarildi.

Xususan, 2025-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohalarda korruptsiya omillari bartaʼraf etish hamda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan 37 ta tahliliy maʼlumot tayyorlangan. Ular boʻyicha 19 ta yangi qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, maishiy korruptsiyaning oldini olish boʻyicha Andijon tajribasi, fuqarolik jamiyati institutlarining korruptsiyaga qarshi kurashishda faolligini oshirishga qaratilgan Navoiy tajribasi, raqamlashtirish boʻyicha Samarqand tajribasi kabi ijobiy malakalar yaratilib, boshqa hududlarga ham tatbiq etilmoqda.

Majlisda aytilganidek, komplayens xizmatining tashkil qilinishi, davlat organlari va tashkilotlarida komplayens hamda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat boʻyicha oʻrinbosarlar faoliyatining yoʻlga qoʻyilish korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi yangilanishlar izchilligini taʼminlash va joylarda chora-tadbirlar ijrosini samarali olib borishda katta turtki boʻldi.

Prezidentimizning “Oʻzbekiston Respublikasida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan agentlik, huquqni muassasalar, korruptsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlimlari va fuqarolik jamiyati institutlarining doimiy hamkorligiga asoslangan “Korruptsiyaning oldini olish klasteri” joriy etildi.

Muhokama chogʻida deputatlar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, sohada toʻliq foydalanilmagan imkoniyatlar va eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan masalalar ham mavjudligi aytildi. Shuningdek, davlat xaridlarida manfaatlar toʻqnashuvi, davlat organlarining ochiqchiligi hamda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanish boʻyicha korruptsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar toʻliq bartaʼraf qilinmagani, “Normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi toʻgʻrisida”gi Qonunda belgilangan talablar toʻliq iro etilmasdan qolayotgani deputatlarning eʼtirozlariga sabab boʻldi.

Xalq vakillari agentlik tomonidan korruptsiyaga oid, eng avvalo, Oʻzbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imijiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini kompleks tahlil qilish, byudjet mablagʻlarining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiyasi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bogʻliq materiallarni oʻrganish, shuningdek, mansabdor shaxslarning qarorlari qonuniyligi yuzasidan oʻtkazilayotgan nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berishdi.

Majlisda siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari kun tartibidagi masala yuzasidan oʻz munosabatlarini bildirishdi.

Yakunda sohani takomillashtirish hamda agentlik tomonidan amalga oshirilishi lozim boʻlgan qator takliflar ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasining tegishli qarori qabul qilindi.

Aholining xavfsiz yashashini taʼminlash – xalq vakillari eʼtiborida

Deputatlar qurilishi tugallanmagan koʻp kvartirali uylarda fuqarolarning noqonuniy yashashiga ruxsat berish holatlarining oldini olishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi oʻqishda koʻrib chiqdi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda shaharsozlik sohasini takomillashtirish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, keyingi vaqtlarda qurilish tugallanmagan va belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilinmagan koʻp kvartirali uylarda fuqarolarning noqonuniy yashashiga ruxsat berish holatlari uchramoqda. Va mazkur vaziyatlar fuqarolarning xavfsizligini taʼminlash, sohada faoliyat yuritayotgan subyektlarning masʼuliyatini yanada oshirish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan preventiv choralarni kuchaytirishni talab etmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksiga koʻp kvartirali uylarning qurilishiga masʼul shaxslar yoki mansabdorlar tomonidan belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilinmagan koʻp kvartirali uylarga fuqarolarning koʻchib kirishiga yoʻl qoʻyganlik uchun toʻgʻridan-toʻgʻri jinoyi javobgarlik belgilash taklif etilmoqda. Shu bilan birga, Shaharsozlik kodeksiga buyurtmachi va pudratchilarga belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilinmagan koʻp kvartirali uylarga fuqarolarning koʻchib kirishiga yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻrish majburiyatini yuklashni nazarda tutuvchi normalar kiritilmoqda.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Fuqarolarning huquqlari ishonchli himoya qilinadi

Majlisda “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda chet el

fuqarolariga viza berish va ularni roʻyxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm sohasini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi natijasida respublikamizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning soni ortib bormoqda.

Biroq ayrim chet el fuqarolari va doimiy ravishda boshqa davlatlar hududida yashayotgan fuqaroligi boʻlmagan shaxslar tomonidan oʻziga berilgan imtiyozlardan toʻgʻri foydalanmasdan, respublikamizda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan holda mehnat faoliyati bilan shugʻullanish holatlari kuzatilmoqda.

Qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartirish kiritilmoqda. Yaʼni mamlakatimiz hududida boʻlib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan holda mehnat faoliyati bilan shugʻullanganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi mehnat munosabatlari sohasida sodir etilishi mumkin boʻlgan huquqbuzarliklarning oldini olishga, fuqarolarning mehnat huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga qaratilgan.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Prekursorlarning muomalasiga oid qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

Prekursorlarning muomalasiga oid qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilashga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq yashirin narkolaboratoriyalarda sintetik giyohvandlik vositalarini tayyorlashda prekursorlardan foydalanish holatlari ortib borayotgani mazkur sohada huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Amaldagi qonunchilikda prekursorlarning muomalasiga oid qoidalarini buzganlik uchun alohida javobgarlik nazarda tutilmagani ayrim huquqbuzarliklarning huquqiy bahosiz qolishiga sabab boʻlmoqda. Qonun loyihasi aynan ushbu boʻshliqni bartaʼraf etishga qaratilgan.

Mazkur loyiha bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga prekursorlarning muomalasiga oid qoidalarini buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlikni belgilovchi yangi norma kiritilmoqda. Mazkur huquqbuzarlik maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin takroran sodir etilganida Jinoyat kodeksida jinoyi javobgarlik belgilanishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual hamda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodekslarga ushbu toifadagi ishlarining tegishligi va ularni koʻrib chiqish vakolatlarini aniq belgilashga qaratilgan oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi prekursorlarning noqonuniy muomalasining oldini olish, sintetik giyohvandlik vositalari ishlab chiqarilishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning sogʻligʻini muhofaza etish hamda mamlakatda narkotik vositalar va ularning prekursorlarining qonunga xilof aylanmasiga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Oʻrmon fondi hududi davlat muhofazasida

Oʻrmon fondi yerlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, ularni muhofaza qilishning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish hamda ekologik barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda ekologik barqarorlikni taʼminlash, biologik xilmaxillikni saqlash, oʻrmonlarni muhofaza qilish va koʻpaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim oʻzgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish borasida chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ham sohada qilinayotgan keng koʻlamli ishlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan.

Amalda oʻrmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga oʻtkazish Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq bajarilar edi.

Endilikda oʻrmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga oʻtkazish tartibi qonun darajasida mustahkamlanmoqda. Qonun loyihasida oʻrmon fondi yerlarining alohida muhofaza etilishini taʼminlash maqsadida Yer kodeksiga oʻrmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan hujjat asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi oʻrmon fondi yerlarining saqlanishini taʼminlash, ulardan maqsadli va oqilona foydalanishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, ekologik barqarorlik va biologik xilmaxillikni saqlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratish, oʻrmon fondi yerlarini muhofaza etish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Faxriylar maqomi qonun bilan belgilanmoqda

“Faxriylar toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda moddama-modda koʻrib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda faxriylar, ayniqsa, Vatanimiz va xalqimiz taraqqiyoti uchun butun umrini bahshida qilgan keksa avlod vakillariga alohida eʼtibor qaratilib, qoʻllab-quvvatlab kelinmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan faxriylar maqomi hamda bu sohada masʼul vazirlik va idoralarning vakolatlari nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida faxriylarning toifalari ham belgilanmoqda. Yaʼni urush faxriylari va imtiyozlari boʻyicha ularga tenglashtirilgan shaxslar, boshqa mamlakatlar hududida olib borilgan jamgʻovar harakatlarda faxriylari, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiradigan vazirliklar va idoralarning faxriylari, sud, prokuratura, adliya va bojxona organlarining faxriylari, mehnat faxriylari, alohida toifadagi faxriylar.

Loyihaga koʻra, belgilangan talab va mezonlarga muvofiq muayyan bir soha, tarmoq yoki kasbda uzoq yillar mobaynida vijdonan namunali mehnat qilish orqali davlat hamda jamiyat eʼtirofiga sazovor boʻlgan shaxslarga faxriy maqomi beriladi.

Nazira MUXTOROVA, Mehnat, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi raisi:

– Faxriy maqomini olgan fuqarolar imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega boʻladi. Xususan, sanatoriya-kurort va sogʻlomlashtirish muassasalarida bepul davolanish, uy-joy kommunal xizmatlar haqini toʻlash boʻyicha kompensatsiya toʻlovlarini olish, shahar transportida bepul yurish, havo va temir yoʻl chiptalariga chegirmlar, davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanish kabi imtiyozlar shular jumlasidandir. Shuningdek, faxriylarning sogʻlomlashtirish muassasalarida dori vositalari bilan imtiyozli taʼminlanishi, madaniyat va koʻngilochar muassasalar (sport, teatr, moddiy madaniy meros obyektlari) hamda muzeylarning pullik xizmatlaridan imtiyozli foydalanishi belgilanmoqda.

Majlisda qayd etilganidek, faxriylarga beriladigan barcha imtiyoz va kafolatlar qonun bilan aniq belgilanib, ularni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash yanada mustahkamlanadi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Mehnat munosabatlari raqamlashtiriladi

Deputatlar mehnat munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda moddama-modda koʻrib chiqdi.

Mazkur hujjat mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishni soddalashtirish, ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni bartaʼraf etish hamda xodimlarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan.

Xususan, ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar roʻyxati qisqartirilmoqda. Yaʼni ilgari surilayotgan tartibga koʻra, fuqaroni ishga qabul qilishda, asosan, uning shaxsiy identifikatsiya raqami talab etiladi. Harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar esa harbiy guvohnoma yoxud harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma taqdim qiladi.

Shu bilan birga, mehnat munosabatlarini raqamlashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Endilikda, elektron raqamli yoki yoki biometrik identifikatsiya (Face-ID) orqali tasdiqlangan hujjatlar yuridik jihatdan qoʻlda imzolangan hujjatlar bilan tenglashtirilmoqda.

Qonun loyihasida mehnat jarayonida tazyiq va zoʻravonlikka qarshi kurashishga doir normalar ham oʻz aksini topgan. Jumladan, bunday holatlarni taqiqlash, ularning oldini olish va jabrlangan xodimlarni himoya qilish choralari belgilanmoqda. Bundan tashqari, ish beruvchi tomonidan ish haqi toʻlash muddati buzilgan taqdirda, har bir kechiktirilgan kun uchun pullik kompensatsiya toʻlash tartibi aniqlashtirilmoqda.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Safarbarlik toʻgʻrisidagi muhim hujjat

Kun tartibidagi navbatdagi masala – “Safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mazkur qonun loyihasi mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, davlatning safarbarlik tayyorgarligi tizimini takomillashtirish, davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, tashkilotlar hamda fuqarolarning safarbarlik sohasidagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilashga qaratilgan.

Loyihaga koʻra, safarbarlik mamlakat xavfsizligini taʼminlash maqsadida davlat organlari, tashkilotlar, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini urush davri sharoitida faoliyat koʻrsatishga tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat uchun muhim vazifalarni uzluksiz bajarish maqsadida ayrim xodimlarni harbiy xizmatga chaqirishdan vaqtincha ozod etishni nazarda tutuvchi bronlashtirish tartibi ham nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida deputatlar bildirgan fikr va takliflar atroflicha muhokamadan oʻtkazilib, uning har bir moddasi

chuqur tahlil qilingani qayd etildi. Natijada qonun loyihasi huquqiy, mazmuniy va yuridik-texnik jihatdan yanada takomillashtirildi. Xususan, qonun loyihasining konseptual asosini tashkil qiluvchi tushunchalar qayta koʻrib chiqilib, ularning huquqiy mazmuni aniqlashtirildi, amaldagi qonunchilikda qoʻllanilayotgan huquqiy atamalar bilan muvofiqlashtirildi, ortiqcha va takrorlanuvchi normalar chiqarildi.

Shuningdek, safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlikning asosiy prinsiplari huquqiy jihatdan takomillashtirilib, prinsip xususiyatiga ega boʻlmagan, safarbarlik tadbirlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi ayrim normalar chiqarildi. Bu esa qonun normalarining huquqiy aniqligi va huquqni qoʻllash amaliyotida bir xil tushunilishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasida safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik sohasidagi davlat organlarining vakolatlari hamda majburiyatlari ham qayta koʻrib chiqildi.

Kozimjon TOJIYEV, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Mazkur qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, uning qabul qilinishi safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik sohasidagi munosabatlarni yagona va yaxlit huquqiy asosda tartibga solish, davlat organlari hamda tashkilotlar oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikni yanada takomillashtirish, vakolat va majburiyatlarni aniq belgilash, shuningdek, huquqni qoʻllash amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari kuchaytiriladi

Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlarini mustahkamlash hamda tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Qayd etilganidek, qonun loyihasi bilan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonun hamda boshqa ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilishi nazarda tutilmoqda. Xususan, loyihada tadbirkorlik subyektlarining tengligi, ishonchning himoya etilishi, mulk daxlsizligi, tadbirkorlikka oid qonunchilikning barqarorligi va aniqligi tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilanmoqda.

Loyiha bilan davlat tomonidan samarali qoʻllab-quvvatlash va rasmiy statistika maʼlumotlarini shakllantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari kichik, oʻrta va yirik toifalarga ajratilmoqda.

Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablar reestrining huquqiy asoslarini mustahkamlash nazarda tutilmoqda. Bunda agar biror-bir talab ushbu maxsus reestrda kiritilmagan boʻlsa, tadbirkor uni bajarmagani uchun javobgarlikka tortilmasligi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasiga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari zimmasiga yangi majburiyat yoki cheklavchi yuklatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tadbirkorlar ishtirokida muhokama etilishi hamda ular tartibga solish taʼsiri boʻyicha ijobiy baholangan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin boʻladi.

Bobur BEKMURODOV, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi raisi:

– Qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash davomida u atroflicha koʻrib chiqilib, deputatlar, tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va ekspertlar tomonidan bildirilgan taklif hamda muhohazalar tahlil qilindi. Muhokamarar natijasida qonun loyihasining bir qator normalari aniqlashtirildi va takomillashtirildi. Jumladan, deputatlar tashabbusi bilan loyihadagi prinsiplar, xususiy lashtirish natijalariga oid kafolatlar, tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va preferensiyalarni qoʻllashga oid va boshqa koʻplab qoidalar qayta koʻrib chiqildi, ayrim normalar amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirildi. Huquqiy noaniqliklarni bartaʼraf etishga qaratilgan oʻzgartirishlar kiritildi.

Majlisda qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Yerlardan foydalanishda tenglik va shaffoflik zarur

Majlisda “Yer toʻgʻrisidagi qonunchilik yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda moddama-modda koʻrib chiqildi.

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan foydalanish jarayonida tenglik va shaffoflikni taʼminlash, yer uchastkalarini bozor aktiviga aylantirish, fermer va dehqon xoʻjaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan

islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlash zarurati ushbu hujjatni ishlab chiqishga asos boʻlgan.

Mazkur loyiha bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalarini bozor aktiviga aylantirishga, yer munosabatlarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yer munosabatlaridagi vakolatlarini aniqlashtirishga, qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan boʻsh turgan yer uchastkalarini berishda (realizatsiya qilishda) ulardan foydalanish shartlarini belgilashga qaratilgan.

Ravshan MAMUTOV, Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi:

– Qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash davomida yerlarni oʻz boshimchalik bilan egallab olishning oldini olishga qaratilgan normalarni qonunchilikka muvofiqlashtirishga hamda soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar turini belgilashda fuqarolar manfaatini hisobga olishga alohida eʼtibor qaratildi. Qonun loyihasining qabul qilinishi muhim boʻlib, natijada yerga boʻlgan huquqlarni ishonchli himoyalash tizimi takomillashtirildi, qishloq xoʻjaligida yer resurslaridan oqilona, samarali va uzluksiz foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi, shuningdek, boʻsh turgan yer uchastkalarining oʻz vaqtida hisobga olinishini va realizatsiya qilinishining hamda yer uchastkalarini bozor aktiviga aylantirishning huquqiy asoslari mustahkamlanadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi oʻqishda qabul qilindi.

Yoshlar bandligi boʻyicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Majlisda Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Saʼdulayevning “Yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, bunday jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan ijtimoiy muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻroviga javobi koʻrib chiqildi.

Taqdim qilingan javobga koʻra, soʻnggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, ularni qoʻllab-quvvatlash, taʼlim olishi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlik bilan shugʻullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Koʻrilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 2025-yilda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2024-yildagiga nisbatan 15 foiz kamaygan. Joriy yilning dastlabki besh oyida esa ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 20,6 foiz qisqargan.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etishga moyil yoshlar bilan individual ishlash tizimi takomillashtirilayotgani, 2026-yilda 29 ming nafardan ortiq yigit-qizlar masʼul rahbarlarga birkiritilgani hamda mazkur tizimni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilgani qayd qilingan.

Parlament soʻroviga javobda yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning iqtidorini roʻyobga chiqarish borasida ham qator ishlar amalga oshirilgani keltirib oʻtilgan. Xususan, 2025-yilda 414,6 ming nafar yoshning bandligi taʼminlangan. Joriy yilda aniqlangan ishsiz yigit-qizlarning 94 foizi ishga joylashtirilgan. Shuningdek, imtiyozli kreditlar, biznes loyihalarini moliyalashtirish, kasb-hunarga oʻqitish va startap tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kun tartibidagi mazkur masala yuzasidan tizimli parlament nazorati olib borilishi qayd etilib, berilgan javob maʼlumot uchun qabul qilindi.

Vazir axboroti eshitaladi

Kun tartibidagi navbatdagi masala – kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Zohidovning “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 2026-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisida”gi axborotini eshitis haqidagi masala koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish, aholi bandligini taʼminlash, yangi ish oʻrinlari yaratish, mehnat bozorini isloh qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali oilalar daromadini oshirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi.

Xususan, Prezidentimizning tegishli farmon va qarori bilan “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi qabul qilib, uning doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2025-yilda kambagʻallik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 5

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLARQashqadaryoda
“Mustaqillik to‘yi”
festivali

Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida “Mustaqillik to‘yi” festivali Ko‘kdala tumani markazi – Yettitom shaharchasidan start oldi.

Shu kuni festival doirasida hududning milliy hunarmandchilik mahsulotlari, yosh iste’dodlarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Taniqli san’atkorlar ishtirokidagi katta konsert dasturi tadbirga bayramona shukuh bag‘ishladi. – Festival 26-iyul kuniga qadar viloyatning barcha shahar va tumanlarida bo‘lib o‘tadi, – deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo‘limi rahbari, senator Komila Karomova. – Tadbirlar davomida mustaqilligimizning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib etish, aholining madaniy hordiq chiqarishini ta’minlashga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so‘zi”).

“Ma’rifat” kitobsevarlarni
chorlaydi

Chortoq tumani markazida joylashgan Zafar Diyor nomidagi mahallada “Ma’rifat” ziyo maskani foydalanishga topshirildi. U tadbirkorlar mablag‘i hisobidan qurib bitkazildi.



Ushbu qo‘sh qavatli zamonaviy binoda kutubxona, kitob do‘koni va 65 o‘rinli o‘quv zali o‘rin olgan. Bu yerdagi adabiyotlar fondi hozirdayoq 20 ming nusxadan ortdi. Ular orasida aholining barcha qatlamiga mos va turli janrlardagi asarlar mavjud bo‘lib, shu joyning o‘zida mutolaa qilish, zarurat tug‘ilgan hollarda xonadon kutubxonalari uchun sotib olish mumkin.

– Ma’rifiy ishlar, avvalo, kutubxonadan, kitob mutolaasidan boshlanadi, – deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Chortoq tumani bo‘linmasi rahbari Rasulbek Ummatov. – Shu jihatdan olganda, tadbirkorlar oilasining katta qulaylikka ega ziyoxona barpo etib, kitobsevarlarga taqdim qilgani tahsinga loyiq. Xayrli tashabbus tumanimiz ahli tomonidan eng yaxshi ijtimoiy loyihalardan biri sifatida e’tirof etilmog‘da.

Yangi kutubxona nafaqat kitob o‘qish maskani, balki yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ma’naviy kamolot va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim ma’rifat o‘chog‘i sifatida ham chortoqliklarga munosib tufba bo‘ldi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so‘zi”).

Xonadonda mo‘jaz muzey

Bag‘dod tumanidagi Do‘rmoncha mahallasida yashovchi Mirzaolim Tursunov xonadonida 35 yil davomida yig‘ilgan 4 mingga yaqin tarixiy buyumlar, noyob osoriatqalar, musiqiy albomlar va qadimiy qo‘lyozmalardan iborat mo‘jazzina muzey tashkil etilgan.



Tuman qishloqlari va qo‘shni hududlardan qiziquvchilar muzeyga kelib, bu yerdagi noyob va tarixiy buyumlarni tomosha qiladi, o‘tmishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlardan bahramand bo‘ladi.

Mirzaolim Tursunovning uy-muzeyi Farg‘ona viloyati hokimligi tomonidan ham bee’tibor qoldirilgan yo‘q. Hozirda muzey faoliyatini rasmiy maqomga o‘tkazish va xonadon sobihiga ushbu faoliyati uchun maosh belgilash masalasini qonuniy hal qilish borasida amaliy ishlar davom etmog‘da. Farg‘ona tarixi va madaniyati muzeyi mutaxassislari tomonidan uy-muzey faoliyati o‘rganilib, uni yanada kengaytirish va Bag‘dod tumanining turizm marshrutlari ro‘yxatiga kiritish borasida ish olib borilmog‘da.

– Milliy adabiyotimiz, san’atimiz va tariximizning mo‘jazzina ko‘zgusi bo‘lgan bu muzey – xalqimizning mulki, kattayu kichik undan bahramand bo‘lsin, – deydi Mirzaolim Tursunov. – Muzeyni noyob eksponatlar, ijod namunalari bilan boyitish harakatidan aslo to‘xtamaymiz.

Bir qarashda xonadonda tashkil etilgan muzey shunchaki oddiy qiziqishdek tuyuladi. Aslida esa, bu sa’y-harakatlar zamirida sidqidildan qilingan mehnat, qadriyatlarimizga hurmat tuyg‘usi mujassam.

Botir MADIYOROV
("Xalq so‘zi”).

MARKAZIY OSIYODAGI NOYOB
ILMIY-AMALIY MARKAZ

kartoshkachilikda xorijning ilg‘or tajribalarini joriy etishga muvaffaq bo‘ldi

Aksariyat milliy taomlarimizni kartoshkasiz tasavvur qilolmaymiz. Shu bois aholining “ikkinchi non” deya e’tirof etiladigan mazkur ne’matga talabi har doim yuqori. Keyingi yillarda ushbu ehtiyojning katta qismi Rossiya, Belarus, Niderlandiya, Belgiya singari davlatlar mahsulotlari hisobiga ta’minlanmog‘da. Biroq import qilinayotgan kartoshka bahosi va sifati har doim ham xaridor kutganidek bo‘lavermaydi. Ayni shu jihat yurtimiz olimlari va dehqonlari oldiga serhosil hamda yuqori sifatli kartoshka urug‘chilgini rivojlantirish, ichki bozorni mahalliy mahsulot bilan to‘ldirish vazifasini qo‘ymoqda.

Innovatsiya

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan agrar sohani isloh qilishga qaratilgan islohotlar jarayonida kartoshkachilikni rivojlantirish, xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, sifatli urug‘liklarning kafolatlangan hajmi hisobiga ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlashga davlat siyosati darajasida ahamiyat berila boshlandi. Pirovardida yurtimiz aholisining kartoshkaga ehtiyoji barqaror ta’minlanmog‘da. Bunda iste’mol va urug‘lik kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtirilgan klaster va kooperatsiya mexanizmlari shakllangani qo‘l kelyapti, albatta.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni chuqur qayta ishlashda “sanoat zanjiri”ni yaratish haqida gap ketganida, “Agrover” mas’uliyati cheklangan jamiyatining tajribasini alohida e’tirof etish joiz. Negaki, uning Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Kartoshka yetishtiruvchilar uyushmasi bilan hamkorlikdagi izlanishlari natijasida Toshkent viloyati hududida “Bo’stonliq kartoshkachilik markazi”, “Solaruz”, “Agrover-urug‘chilik”, “Vernalural”, “Sof tabiat agro” MCHJlar negizida iste’molga yo‘natirilgan kartoshka ishlab chiqarish va chuqur qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan “Agrover” agrosanoat klasteri faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur klasterning asosiy vazifasi urug‘lik kartoshka yetishtirishga yo‘natirilgan bo‘lib, bugungi kunda virussiz “in vitro” texnologiyasi asosida ko‘paytirilgan urug‘larni mahalliy iqlimga moslashtirishda yuqori natijalarga erishilmog‘da. Bundan tashqari, almashlab ekish tizimi samaradorligi ilmiy asosda qayta ishlab chiqildi.



– Sir emaski, ayni paytda respublikamizda mahalliy, serhosil kartoshka urug‘chilgini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib turibdi. Chunki hozirgi kungacha bizga iste’mol va urug‘lik kartoshkaning katta qismi Pokiston, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya kabi davlatlardan import qilinmog‘da, – deydi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori Bahodir Ibrohimov. – Mamlakatimiz iqlimi, suvi, tuprogi, hosildorligi – bularning barchasi havas qilsa arizulik. “Agrover” agrosanoat klasteri jamoasi ana shu qulay sharoitdan foydalangan holda import muammosini hal etish sari dadil odimlamog‘da. Bu yerda kartoshka minituganaklarini birlamchi laboratoriya sharoitida, sog‘lom, birinchi va ikkinchi reproduksiya, super elita va elita holatigacha yetishtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu ilmiy ishlanmalar yurtimizda kartoshka urug‘chilgini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi.

“Agrover” jamoasi safida iqtidorli yosh olimlar, xorijlik tajribali mutaxassislar faoliyat yuritayotgani

agrar sohaning boshqa tarmoqlari rivojida ham yangi uqlar ochmog‘da. Xususan, dukkakli, boshqoli don va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘liklarni yetishtirish, mahalliy va xorijiy seleksiya hamda biotexnologik navlarning birlamchi urug‘chilgini tashkil etish, ekishdan oldin urug‘liklarga ishlov berish va qayta ishlashga oid innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish kabi samarali ishlar ko‘lami tobora kengaymog‘da.

“Agrover” agrosanoat klasterining Zangiota tumanidagi “Bo‘z-Suv Biozero” kompaniyasi tomonidan 2018-yilda 5 gektar maydonda tashkil etilgan yuqori texnologiyali majmua, aytilish joizki, issiqxona dehqonchiligida yangi davrni boshlab berdi. Bunday deyish uchun asoslar yetarli. Chunki u ekologik toza bo‘lib, eng yuqori – oltinchi



avlod texnologiyalari tatbiq qilingan.

Klasterning to‘plagan boy tajribasi negizida atirgullarning ham 40 dan ortiq xorijiy navlari mahalliy sharoitga moslashtirildi. Quvonarlisi, “Gulshan”, “Havas”, “Xiva”, “Navro‘z”, “Olmos”, “Anor”, “Oqto‘sh”, “Amirsoy” kabi yangi atirgul navlari yaratildi. Bu gullar 2019-yili Moskva shahrida o‘tkazilgan “Gullar ko‘rgazmasi” xalqaro tadbirida “Eng yaxshi sifat uchun” oltin medali bilan taqdirlandi.

Kompaniya issiqlikni saqlash va taqsimlash tizimiga ham ega. Yevropa sifati standartlariga javob beradigan energotejamkor qozonxonalar, sovitsiz va chiqindilarni tozalash tizimlari yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ana shunday o‘ta zamonaviy majmuada 127

nafar mahalliy yosh yigit-qiz mehnat qilyapti.

Bugungi kunda mazkur issiqxona bilan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Toshkent davlat agrar universiteti, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda boshqa ilmiy muassasalar, xorijiy investorlar o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa o‘zining natijalarini bera boshladi.

Gap shundaki, issiqxonada yetishtirilgan kartoshka minituganak hosili namunalarning birinchi partiyasi olindi. Vaholanki, ular ilgari Niderlandiya va Germaniya kabi chet davlatlardan import qilingan. Shubhasiz, bu Markaziy Osiyoda noyob ilmiy-amaliy markaz vujudga kelganidan dalolat beradi.

– Zamonaviy texnologiyalar bilan ijroizlangan ushbu majmuada nafaqat kartoshka urug‘ini “in vitro” usulida sog‘lom ko‘paytirish, balki dukkakli



o‘simliklar, meva-sabzavotlar, atirgullarni ham virussiz ko‘paytirish imkoniyati mavjud, – deydi “Agrover” agrosanoat klasteri qoshidagi “Sof tabiat agro” MCHJ laboratoriyasi mudiri Vladimir Mixalchik. – Bu ilmiy izlanishlar natijasida kartoshkaning super elita va elita navlarini yetishtirish, dala sharoitida ulardan yuqori hosil olish, bozorlarimizda kartoshka tannarxini arzonlashtirishga erishish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, “Agrover” kompaniyasi tomonidan Yangiyo‘l, O‘rta Chirchiq, Zangiota va Bo’stonliq tumanlarida kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtirilgan korxonalarga ham asos solindi. Ular tasarrufidagi yer maydonlarida iste’mol va urug‘lik kartoshka yetishtirish hamda almashlab

BIYOBON BAG‘RIDAGI BO‘STON

Rosti, odamning odamdan farqi bo‘larkan. Kimdir oyog‘ining tagidan oqib turgan zilol sunning qadriga yetmasa, kimdir suv tashib bo‘lsa-da, cho‘l bag‘rida bog‘ yarata olarkan. Yakkabog‘ tumanining olis Suvlisoy qishlog‘ida yashovchi fermer Tursunpo‘lat Meyliqulov ana shunday uzoqni ko‘ra biladigan, qalb ko‘zi ochiq tadbirkorlardan biri desak, adashmaymiz. Sababi u yurtimizda keng quloqch yozayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasining faol ishtirokchisiga aylangan.

Intilish

Suvlisoy qishlog‘i tog‘ etagida joylashgan. Bu mo‘jazzina qishloqning sarhadlari bir tomondan toqqqa – Hisor qo‘riqxonasiga tutashsa, qolgan tomoni adirlarlik, yaylovlariga ulashib ketgan. Cho‘ng‘i dalasi ham ana shu yaylovlardan biri. Bu yerlar ilgari suv kelmaydigan biyday dasht edi, bir qismiga lalmi g‘alla ekilardi. Keyinchalik izma-iz kelgan qurg‘oqchilik sabab hech kim bu qaqroq dalaga urug‘ sepmaydigan bo‘ldi. Ochiq‘i, otarini Cho‘ng‘iga yoyib yuborgan cho‘ponlar soylash uchun birgina daraxt toza olmasdi.

Qahramonimiz esa o‘sha qurg‘oqchilik yillarida, ana shu biyobonda gektarlab yerga

uzangan turli-tuman daraxtlarga boy bog‘ni ko‘ra oldi. Necha kunlab kuzatish, o‘rganish uchun dalalarni kezgan fermer adirlar osha qariyb 15 km. uzoqlikda oqayotgan Oqkamar bulog‘ini Cho‘ng‘i tuprog‘iga boshlab kelish mumkinligiga ko‘zi yetdi. Bu oson emasdi, asosan, qo‘l mehnati talab qilardi.

Asli kasbi mehnat ta’limi o‘qituvchisi bo‘lgan Tursunpo‘lat muallim mehnatdan qochmaydigan tadbirkor inson. Texnikaning u yog‘idan kirib bu yog‘idan chiqadigan mohir mexanik usta emasmi, darsdan bo‘sh paytlari ham bekor o‘tirmadi. Nafaqaga chiqqach, dam olish maskanlari barpo

qilib, xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘ydi. Ammo Cho‘ng‘i kengliklari bo‘sh yotgani uning tinchini buzdi: 15 km. masofaga rezina quvur yotqizib, suv tortib keldi.

...Suv keldi, hayot keldi! Fermer Cho‘ng‘iga uy soldi. Otaning yo‘lini davom ettirgan o‘g‘li Ilhom Meyliqulov shu yerda muqim yashab, dashtni bo‘stonga aylantirish harakatini boshladi. Uy yonidan sigir-buzoqlaru qo‘y-qo‘zilar uchun molxonalar solindi. Ota fermerlikni o‘g‘liga topshirdi. Ana endi Cho‘ng‘iga qizg‘in hayot boshlandi. Bellar bog‘landi, yenglar shimarildi, adirga “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida minglab ko‘chatlar qadaldi.

– Bugun “Tursunpo‘lat Meyliqulov” fermer xo‘jaligida 700 tup tut, 400 tup terak, 500 tup bodom, 200 tupdan ziyod o‘riklar, yana shuncha yong‘oq, 100 tupga yaqin gilos

Fermer kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlayapti. Mana shunday ishchan, tashabbuskor yoshlar esa yurtimizda juda ham ko‘p. Eng quvonarlisi, ular “chetga ketib ishlash” emas, o‘z yurtini obod qilish, o‘z tuprog‘ida yashil bog‘lar, yangiliklar yaratish ishtiyoqi bilan yashamog‘da. Zero, mamlakatimizning har qarichi – keng imkoniyatlar oshyoni.

G‘olib BAHROMOV
("Xalq so‘zi”).

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning yanvar – iyun oylarida O‘zbekistonga turistik maqsadlarda 6 million 565 ming 410 nafar chet el fuqarosi tashrif buyurdi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullig‘iga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir G‘. Bahromov.
Masahhiih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.45

1 2 3 4 5 6